

MAVZU: TAFAKKUR VA NUTQNING KASALLIKLARDA O'ZGARISHI

Niyozmatova Zamiraxon Muxtarovna

Bo'ston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Tibbiy psixologiya va shaxslararo muloqot fani o'qituvchisi

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi.



Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur — inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi (qarang ong). Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson

o‘zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikni aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob‘yekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va hokazo) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta‘lim jarayoni va ishlab chiqarish.da odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatleri vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda

Nutqning buzilishi. Insultga chalingan odamning nutqi o‘zgaradi. “Mast odam nutqi” deb ataladigan simptom paydo bo‘ladi. Bunda til hatto eng oddiy so‘zlarni ham noto‘g‘ri talaffuz qiladi.



Koordinatsiyaning yo‘qolishi. Ko‘pincha chayqalib yurish kuzatilishi mumkin. Odam bir tomonga og‘ib, oyog‘ini sudrab yura boshlaydi. Ba‘zan tananing bir tomonida faoliyat yo‘qoladi. Agar bemordan qo‘llarini ko‘tarish so‘ralsa, u buni qila olmaydi yoki ularni qiyinchilik bilan ko‘taradi.

Nutqning ifodaliligi

- ◆ Nutqning bu xususiyati uning ta‘sirchanligi va samaradorligini oshiruvchi vositadir. Bunda nutqqa ifodalilik va obrazlilik baxsh etuvchi turli tasviriy vositalar (o‘xshatish, epitet, metonimiya, metafora, sinekdoxa, allegoriya va b.) bilan birgalikda kontekstual nutqiy vositalar (nutqning tovush tomonidan muvofiqligi, ifodali intonatsiya, nutqni dialoglashtirish va intimplashtirish; intonasion va psixologik pauza) kabilarga e‘tibor qaratiladi.

Mimika o‘zgarishi. Yuz asimmetriyasi paydo bo‘lishi mumkin, insult bo‘lgan odam tabassum qilganda og‘zining bir burchagi o‘zgarmaydi yoki pastga tushgan holatda bo‘ladi.

Ongning o‘zgarishi. Insult bo‘lgan odam noto‘g‘ri va g‘alati narsalarni gapirishi mumkin. Ayrim hollarda hushini yo‘qotadi.

Insult belgilari sezilgan zahoti shoshilinch tez yordamni chaqirish kerak. Shifokorlar kelguncha derazalar ochilib, kiyim yoqasi bo'shatilishi lozim. Shuningdek, maksimal kislorod oqimini ta'minlash muhim. Ammo kasalxonaga olib borish tavsiya etilmaydi. Chunki bu maxsus brigada tomonidan amalga oshirilishi kerak. Insultni uy sharoitida davolamaslik kerak. Bu o'z-o'zidan o'tib ketadigan kasallik emas.

Kichik yoshdagi bolalar orasida nutq buzilishi bilan bog'liq muammolar ko'p uchraydi. Bunga esa asosan tashqi omillar yoki ota-onalarning e'tiborsizligi sabab bo'lishi mumkin.

"Dislaliya nutq buzilishining keng tarqalgan turi bo'lib, bu holatda kichik yoshli o'g'il-qizlar ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydi. Yoki bir tovushni ikkinchisiga almashtirib, ba'zi paytda uni o'tkazib yuboradi", — deydi stomatolog-shifokor Mirafzal Irxanov.

Asosan 3-4 yoshli kichikintoylarda uchraydigan bu kabi nutq buzilishida bola o'z istaklarini to'liq va aniq bayon eta olsa-da, ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Masalan "mashina" so'zini "matina", "shirinlik" so'zini esa "tirinlik" deb aytishi mumkin.



Dislaliyaning 2 xil – funksional va mexnik turlari bor. Mexanik turiga asosan bola og'zidagi nutq apparatida (tishlar joylashuvi, jag'lar shakli) kamchiliklar, tanglayning tartibsiz tuzilishi, qalin lablar sabab bo'ladi.

Funksional dislaliyani esa bolaning o'tkir kasalliklarni boshdan kechirganligi, oilada ikki tilda so'zlashish, farzand nutqini noto'g'ri tarbiyalash, u bilan kam suhbatlashish, kichikintoy bilan gaplashganda so'zlarni "bolalarcha" talaffuz qilish va unda fonemik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi kabi omillar keltirib chiqaradi.

Mexanik dislaliya tashxisi qo'yilgan bolani ortodont va logoped mutaxassislar birgalikda davolashi lozim. Buning uchun kichkintoyga og'iz orqali bajariladigan maxsus mashg'ulotlar tavsiya etiladi. Ayrim vaqtlarda esa shifokor ko'rsatmasi bilan jarrohlik amaliyoti qo'llaniladi.

Funksional dislaliya 5 yoshgacha davolanmaydi. Agar bola shu davrga qadar ba'zi so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilayotgan bo'lsa, u bilan to'g'ri va ravon so'zlashish orqali muammoni bartaraf etish mumkin. Bunda kichkintoyga she'r yodlatish, qo'shiqlar eshittirish yaxshi foyda beradi. Biroq bola 5 yoshga to'lgach ham "quyosh" so'zini "quyos" deyayotgan bo'lsa, uni, albatta, shifokorga ko'rsatish zarur.

Mazkur holatda logoped jajji bemorga og'iz mashg'ulotlarini o'rgatish va talaffuz qila olmayotgan tovushlarni to'g'ri aytishga ko'maklashadi. Ya'ni maxsus logopedik yo'llar bilan bu tovushlarni kichkintoy nutqida mustahkamlaydi.

Shuningdek, bola nutqini rivojlantirishda og'iz mushaklarini kuchaytirish yaxshi samara beradi. Buning uchun kichkintoyga sabzi, olma, qotgan non yoki turshak kabi yeguliklardan berib turilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Afaziya - bu artikulyatsiya va eshitish qobiliyatining saqlanib qolishiga qaramay, fikr va muloqotni ifodalash uchun so'zlardan foydalanish qobiliyatini yo'qotadigan nutq buzilishidir.

Afaziyaning quyidagi turlari mavjud:

- **Motor afaziya** - tovushlarni qayta tiklay olmaslik.
- **Sensor afaziya** - nutqni to'liq tushunmaslik va tovushlarni farqlashda qiyinchilik.
- **Amnestik afaziya** - narsalarni tasvirlash qobiliyatini saqlab qolgan holda ularni nomlashda qiyinchilik.
- **Semantik afaziya** - makon munosabatlari bilan bog'liq nutqiy ta'riflarni tushunishdagi qiyinchiliklar.
- **Dinamik afaziya** - nutq tashabbusining yo'qligi va spontan nutqning buzilis



Sabablari

Afaziya nutq va tilga javob beradigan miya qismlarining zararlanishi tufayli yuzaga keladi. Sabablarga quyidagilar kiradi:

- Bosh miya jarohatlari
- Yallig‘lanish jarayonlari
- Miya o‘smalari
- Qon tomir kasalliklari va qon aylanishining buzilishi (insult)

Quyidagi sohalar zararlanadi:

- Chap yarim shar pastki peshona burmasining orqa qismlari
- Yuqori chakka burmasining orqa qismlari
- Tapa va chakka bo‘lagining pastki-orqa qismlari
- Chap yarim sharning tepa-chakka-ensa sohasi

Afaziya belgilari

Afaziyaning xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi:

- Narsalarni nomlay olmaslik
- Qisqa, uzun-yuluq jumlar bilan gapirish
- Nutq qobiliyatining yo‘qolishi, nutqni imo-ishoralar bilan almashtirish
- Harflarni o‘tkazib yuborish va xatdagi bo‘g‘inlarni aralashtirish
- O‘qish paytida harf va bo‘g‘inlarni tanib bo‘lmaydi
- Yangrayotgan nutqning ma’nosini tushunmaslik
- Fikrlarni ifodalay olmaslik
- Nutqdagi muammolar

Agar sizda ham shunga oʻxshash belgilar borligini aniqlasangiz, darhol shifokorga murojaat qiling. Kasallikning oqibatlarini bartaraf etishdan koʻra oldening olish osonroq

Diagnostika

- ☐ Miyani KT qilish
- ☐ Miyani MRT qilish
- ☐ Lomber punksiyasi (orqa miya)
- ☐ Elektroansefalografiya (EEG) Afaziya diagnostikasi ogʻzaki va yozma nutqni, shuningdek, turli xil testlarni oʻrganadigan shifokor-logoped tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, nevrolog maslahati talab qilinadi, u quyidagilarni tayinlaydi:

Afaziyaning davolash

Afaziyaning statsionarda davolash quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- Asosiy kasallikni davolash
- Logoped bilan terapiya (yakka tartibda yoki guruhda)
- Psixoterapiya

Xavf guruhi

Xavf guruhini quyidagilar tashkil etadi:

- Keksa odamlar
- Irsiy moyilligi boʻlgan odamlar
- Tranzitor ishemik xuruj (TIA) oʻtkazgan odamlar

Oldini olish

Afaziya profilaktikasi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Faol hayot kechirish
- Ratsional ovqatlanishga rioya qilish
- Har yili nevrolog va kardiologga tashrif buyurish

Foydalangan adabiyotlar

1. Gʻoziyev E.G'. "Umumiy psixologiya" Toshkent - 2002 y.
2. Qurbonova G.A. "Psixologiya" Toshkent - 2016y.
3. Томас Гоббс Philosophicall Rudiments concerning Government and Society (публикация английского перевода с латинского «De Cive») (1651)